



O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha
va maktab ta'limi vazirligi

_____ hokimligi
maktabgacha va maktab ta'limi

_____ shirkamasi

_____ maktabgacha va
maktab ta'limi bo'limi tasarrufidagi

_____ maktabgacha ta'lim tashkiloti

KICHIK GURUH TARBIYACHISI

_____ ning

2021-yil Yozgi sog'lomlashtirish davrida
ishlarini tashkil etish bo'yicha

METODIK TAVSIYA



O'zbekiston Respublikasi
Maktabgacha va maktab ta'limi
vazirligining
2025-yil "19"-maydagi
162-son buyrug'iga
1-ilova

**Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida yozgi sog'lomlashtirish davrini tashkil
etish bo'yicha Respublika ishchi guruh
TARKIBI**

- | | | |
|-----|------------------|--|
| 1. | F.Boqiyev | - Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri
o'rinbosari, <i>ishchi guruh rahbari</i> |
| 2. | H.O'rinov | - Maktabgacha ta'lim tizimi faoliyatini
muvofiglashtirish departamenti direktorining
birinchi o'rinbosari, <i>ishchi guruh rahbari</i>
<i>o'rinbosari</i> |
| 3. | F.Kushnazarov | - Soha infratuzilmani rivojlantirish departamenti
direktori, <i>a'zo</i> |
| 4. | M.Yuldashev | - Pedagog kadrlarni tayyorlash va kasbiy
rivojlantirish boshqarmasi boshlig'i, <i>a'zo</i> |
| 5. | A.Kamalov | - Ta'lim tashkilotlarida tarbiyaviy ishlarni va
chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlikni
muvofiglashtirish boshqarmasi boshlig'i, <i>a'zo</i> |
| 6. | L.Berdiyeva | - Maktabgacha ta'lim tizimi faoliyatini
muvofiglashtirish departamenti direktori
o'rinbosari, <i>a'zo</i> |
| 7. | S.Maxsudov | - Ta'lim tashkilotlarini litsenziyalash bo'limi
boshlig'i, <i>a'zo</i> |
| 8. | X.Turaxodjayev | - Sog'lom ovqatlantirishni tashkil etish va tibbiy
xizmat ko'rsatishni muvofiglashtirish bo'limi
boshlig'i, <i>a'zo</i> |
| 9. | G.Parpiyeva | - Maktabgacha ta'lim tashkilotlariga metodik
xizmat ko'rsatish va ta'lim sifatini ta'minlash
bo'limi boshlig'i, <i>a'zo</i> |
| 10. | D.Xasanova | - Maktabgacha ta'lim tarbiyalanuvchilarni
salomatligini ta'minlash bo'limi boshlig'i, <i>a'zo</i> |
| 11. | S.Rahmonberdiyev | - Maktabgacha ta'lim tashkilotlariga metodik
xizmat ko'rsatish va ta'lim sifatini ta'minlash
bo'limi bosh mutaxassisi, <i>kotib</i> |

Izoh: *Ishchi guruh a'zolari boshqa ishga o'tgan taqdirda uning o'rniga tayinlangan yoki
vazifa yuklatilgan shaxs ishchi guruh a'zosi hisoblanadi.*

O‘zbekiston Respublikasi
Maktabgacha va maktab
ta’limi vazirligining
2025-yil “19”-maydagi
162-son buyrug‘iga
2-ilova

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB
TA’LIMI VAZIRLIGI**

**MAKTABGACHA TA’LIM
TASHKILOTLARIDA YOZGI
SOG‘LOMLASHTIRISH ISHLARINI
TASHKIL ETISH BO‘YICHA
METODIK TAVSIYA**



Toshkent-2025

KIRISH

Maktabgacha yoshdagi bolalarning sogʻlom rivojlanishi va ularning jismoniy, maʼnaviy, intellektual qobiliyatlarini shakllantirishda maktabgacha taʼlim tashkilotlarining roli katta ahamiyatga ega.

Yozgi davr bolalar uchun nafaqat dam olish, balki ularning sogʻligini mustahkamlash, tabiat bilan yaqindan aloqa qilish, ekologik madaniyatni shakllantirish, yangi koʻnikmalarni egallash va ijtimoiy munosabatlarni mustahkamlash uchun qulay imkoniyatdir.

Shuning uchun ham yozgi sogʻlomlashtirish ishlarini toʻgʻri tashkil etish maktabgacha taʼlim tashkilotlarining ustuvor yoʻnalishlaridan biri hisoblanadi.

Ushbu metodik tavsiyaning maqsadi – maktabgacha taʼlim tashkilotlarida yozgi davrni samarali tashkil etish, bolalarga qiziqarli va pedagogik jihatdan qimmatli faoliyat sharoitlarini yaratish, shuningdek, ularning salomatligini mustahkamlashga qaratilgan yagona yondashuvni shakllantirishga koʻmaklashishdir.

Unda yozgi oylarda bolalar bilan olib boriladigan faoliyatning tashkil etilish tartibi, ommaviy sogʻlomlashtirish tadbirlari, ota-onalar uchun xavfsizlik texnikasi qoidalari kabi amaliy jihatlar oʻz aksini topgan.

Metodik tavsiya Oʻzbekiston Respublikasining Maktabgacha taʼlim va tarbiya toʻgʻrisidagi” 2019-yil 16-dekabrda OʻRQ-457-son Qonun toʻgʻrisida” 2020-yil 23-sentabrda OʻRQ-637-son Qonunlar toʻgʻrisida” Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Maktabgacha taʼlim va tarbiya standartini tasdiqlash toʻgʻrisidagi” 2020-yil 22-dekabrda OʻRQ-637-son, Maktabgacha taʼlim tashkilotlari faoliyatini yanada takomillashtirish tadbirlari toʻgʻrisidagi” 2019-yil 13-mayda OʻRQ-391-son, “Davlat maktabgacha taʼlim muassasalarida sogʻlom ovqatlanirish tizimini yanada takomillashtirish toʻgʻrisidagi” 2019-yil 25-iyulda OʻRQ-626-son qarorlari, Oʻzbekiston Respublikasi Maktabgacha taʼlim vazirligi va Sogʻliqni saqlash vazirligining Maktabgacha taʼlim tashkilotlarida bolalarning hayoti va sogʻligʻini muhofaza qilish tashkil etish tartibi toʻgʻrisidagi nizomni tasdiqlash haqida” 2020-yil 30-aprilda OʻRQ-20/1, 10-qq/1-son qoʻshma qarorlariga (Oʻzbekiston Respublikasi Sogʻliqni saqlash vazirligi tomonidan 2018-yil 14-mayda roʻyxatdan oʻtkazilgan, roʻyxat raqami 3012), Oʻzbekiston Respublikasi Sanitariya-epidemiologiya, osonlik va jamoat salomatligi xizmatining “Oʻzbekiston Respublikasi Maktabgacha taʼlim muassasalarining joylashuvi, tuzilishi va tashkillashtirish toʻgʻrisidagi sanitariya-gigiyenik talablar” 2021-yil 1-martda OʻRQ-0355-18-son qarori (Oʻzbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2021-yil 1-martda hisobga olingan, hisob raqami 6-son), Oʻzbekiston Respublikasi Bosh davlat sanitariya xizmatining “Oʻzbekiston Respublikasi Maktabgacha taʼlim tashkilotlarida tarbiyalanayotgan bolalarni xavfsiz

va sifatli ovqatlanishini tashkil etilishiga oid gigiyenik talablar

” 2021-yil 17-iyulda OʻRQ-0016-21-son qarori (Oʻzbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2021-yil 26-iyunda hisobga olindi, hisob raqami 30-son), Oʻzbekiston Respublikasi Sogʻliqni saqlash vazirligi hamda Maktabgacha va maktab taʼlimi vazirligining “Maktabgacha va umumiy oʻrta taʼlim tashkilotlarida tibbiy xizmatni takomillashtirish toʻgʻrisida” 2024-yil 11-dekabrda OʻRQ-18 va 41/qq-son qarori va boshqa amaldagi mavjud meʼyoriy huquqiy hujjatlar asosida hamda sogʻlom turmush tarzini ragʻbatlantirish dasturlari va xalqaro tajribalar asosida

ishlab chiqilgan bo'lib, barcha yosh guruhidagi bolalar, pedagoglar hamda ota-onalar uchun qo'llanma vazifasini o'taydi.

Yozgi sog'lomlashtirish ishlarini tizimli tashkil etish orqali bolalarning immunitetini oshirish, ularga tabiatni asrash va parvarish qilish tuyg'usini singdirish, jismoniy faollikni rag'batlantirish va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga erishiladi.

Metodik tavsiya maktabgacha ta'lim xodimlariga yozgi davrda bolalar bilan ishlash jarayonida yordam berish, ularning kasbiy ko'nikmalarini yanada rivojlantirish va sog'lom avlod tarbiyasiga hissa qo'shish maqsadida tayyorlangan.

Undan samarali foydalanish orqali har bir bolaning yozgi sog'lomlashtirish davrini mazmunli, xavfsiz va esda qolarli qilishga erishish mumkin.

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI TARBIYACHILARINING YOZGI SOG'LOMLASHTIRISH DAVRINI SAMARALI TASHKIL ETISHDAGI ASOSIY VAZIFALARI:

guruh tarbiyalanuvchilarining yosh xususiyatlarini inobatga olgan holda yozgi sog'lomlashtirish davri uchun ish rejani tuzish;

ertalabki qabul va badantarbiya mashqlari, barcha faoliyatlarni ochiq havoda o'tkazish;

"Ilk qadam" davlat o'quv dasturi asosida bolalarning olgan bilim, ko'nikma va malakalarini mustahkamlash bo'yicha rejalarni amalga oshirish;

mavzular bo'yicha rivojlantiruvchi markazlarni jihozlash va mavzuli rejalashtirish asosida ta'lim-tarbiya jarayonini olib borish;

mavsum davomida xavfsiz rivojlantiruvchi muhitni yaratish;

ta'lim-tarbiya jarayoni va chiniqtirish tadbirlarini hamshira bilan hamkorlikda samarali tashkil etish;

yoziq sog'lomlashtirish davrida maxsus chiniqtirish tadbirlari grafigiga asosan qayd etish jurnalini yuritish;

bolalar hayoti va sog'lig'ini muhofaza qilish, tashkilot hududiga yaqin joylarga xavfsizligini ta'minlagan holda ekskursiyalar va sayohatlarni tashkil etish;

bolalarni zararli o'simlik va boshqa narsalar bilan zaharlanishining oldini olish choralarini ko'rish;

yoziq sog'lomlashtirish tadbirlarini tashkil etishda jihozlash va bezatish ishlarini olib borish;

hamshira bilan birgalikda bolalar rivojlanishi antropometrik ko'rsatkichlarni aniqlash;

yer maydonchalari va o'yin maydonchalarida bolalar mehnati va o'yin faoliyatini to'g'ri tashkil etish;

yoziq davr kun tartibiga rioya qilish va bolalarni toza ichimlik suvi bilan ta'minlash; ota-onalar uchun oilada bolalarni chiniqtirish bo'yicha kerakli maslahat va tavsiyalar berish;

bola hayoti va sog'lig'ini muhofaza qilish yo'riqnomasiga Nizomiga rioya etish; ochiq havoda bolalar hayoti va sog'lig'i xavfsizligini ta'minlash.

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA YOZGI SOG'LOMLASHTIRISH ISHLARINI TASHKIL ETISH

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston – 2030" strategiyasi

to'g'risida" 2023-yil 11-sentabrdagi Farmonida bir qator ustuvor vazifalar belgilab berildi.

Belgilangan vazifalar asosida maktabgacha yoshdagi bolalarni sog'lom, jismoniy barkamol rivojlanishlari uchun zarur shart-sharoitlar yaratib berilishi, kognitiv va ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirish, kommunikativ va ijodiy kompetensiyalarni shakllantirish, sog'lomlashtirish, chiniqtirishga qaratilgan tadbirlarni amalga oshirish, o'quv yili mobaynida olgan bilim va ko'nikmalarini mustahkamlash ishlarini samarali tashkil etilishiga alohida e'tibor qaratish zarur.

Ushbu davrda bolalar bilan o'tkaziladigan barcha tadbirlarni yengillashtirish, qiziqarli va ko'tarinki o'tishini ta'minlash, turli ko'ngilochar tadbirlar, kichik sayrlarni muntazam tashkillashtirish, ijodiy va amaliy ishlarni bajartirish, quyosh, havo, suv muolajalarini o'rinli qo'llash, charchoqyozdi mashqlar va alohida belgilangan kun tartibiga qat'iy amal qilish tavsiya etiladi.

Mazkur metodik tavsiyada barcha turdagi maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyalanayotgan bola(*tarbiyalanuvchi*)lar bilan yozgi sog'lomlashtirish davrida (*1-iyundan 31-avgustgacha*) o'tkaziladigan sog'lomlashtirish tadbirlarini tashkil etish ko'rsatilgan.

Yozgi sog'lomlashtirish davrida bolalar o'quv yili davomida olgan bilimlarida yuzaga kelgan bo'shliqlarini inobatga olgan holda, "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi (*3-ilova. Numunaviy o'quv reja*)ga muvofiq ta'lim-tarbiya jarayoni umumiy guruhlarda va erkin o'yin faoliyati orqali rivojlantirish markazlarida (*4-ilova. Namunaviy yillik mavzuli reja*) tashkil etiladi va tarbiyalanuvchilar olgan bilimlari mustahkamlanadi.

Yozgi sog'lomlashtirish ish rejasini shakllantirishda tashkilot hududiy joylashuvi, bola yosh xususiyatlari va shaxsga yo'naltirilgan yondoshuv inobatga olinadi.

Yozgi sog'lomlashtirish davrida amalga oshiriladigan tashkiliy, metodik, sog'lomlashtirish hamda nazoratga doir chora-tadbirlar rejasi tashkilotning navbatdagi pedagogik kengashida tasdiqlanadi.

Tashkilotning yozgi sog'lomlashtirish davri ish rejasida ta'lim-tarbiya, sog'lomlashtirish-chiniqtirish, hamkorlik ishlari, sport va ko'ngilochar tadbirlar, tashkiliy ishlar (*obodonlashtirish, moddiy-texnik bazani boyitish*) aniq belgilab olinadi.

Yozgi sog'lomlashtirish davrida (*iyunning birinchi haftasida*) pedagog xodimlar "Bolalar xavfsizligi va sog'lig'ini muhofaza qilish" yo'riqnomasi bilan tanishtiriladi hamda direktor o'rinbosari, hamshira, jismoniy tarbiya yo'riqchisining yozgi davr uchun ish rejasi ishlab chiqiladi.

Yozgi sog'lomlashtirish tadbirlari samarali o'tkazilishi maktabgacha ta'lim tashkiloti jamoasining o'z vaqtida va puxta tayyorgarlik ko'rishiga bog'liq.

Bu davrda bolalarning sog'lig'ini mustahkamlash uchun bor imkoniyatlardan foydalanib maydonchalarni va rivojlantirish muhitini tayyorlash, barcha tadbirlarni bolalarni rivojlanishi va ularni chiniqtirishga qaratish lozim.

Yozgi sog'lomlashtirish davrining maqsad va vazifalari

Yozgi sog'lomlashtirish davrining maqsadlari:

Bolalarning sog'lig'ini muhofaza qilish va mustahkamlash;

jismoniy, aqliy va ijtimoiy salomatligini mustahkamlash, ularning kognitiv, kommunikativ, psixologik rivojlanishini qo'llab-quvvatlash;
sog'lomlashtirish va chiqniqtirish tadbirlarini tashkil etish;
tabiat qo'ynida dam olish orqali ijobiy emotsional holatini yaxshilash va ularni hayotga faol tayyorlash;

bolalarning shikastlanishi va kasallanishini oldini olish;
yozgi davrda maktabgacha yoshdagi bolalarning harakatli faolligini, ijtimoiy-hissiy rivojlanishini ta'minlash;

sayr va kuzatish jarayonlarida muammolarni hal qilishga bo'lgan qiziqishni qabul qilish, tanqidiy fikrlashga o'rgatish;

bolalarning rivojlanish sohalari va tayanch kompetensiyalarini shakllantirish, bilim, ko'nikma va malakalarini mustahkamlashga qaratilgan ta'limiy-tarbiya jarayonining samarali shakli va usullaridan foydalanish uchun shart-sharoitlarni yaratish.

Yozgi sog'lomlashtirish davrining yozgi davrda bolalarning salomatligi va jismoniy rivojlanishini yaxshilash, ularni axloqiy tarbiyalash, qiziquvchanlik va kuzatib-kuylash faolligini rivojlantirish, madaniy-gigiyenik va mehnat ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan tadbirlar tizimini amalga oshirish;
bolalar hayoti va sog'lig'ini yaxshilash uchun shart-sharoitlarni yaratish, bolalarning sayrda mustaqil, ijodiy faoliyati uchun sharoit yaratish;

bolalarning sog'lomlashtirish sohasidagi ko'nikmalarini ta'minlash;
tabiiy omillardan (qiyos, quyosh, havo, suv) keng foydalanish hisobiga bolalarni sog'lomlashtirish, ularni harakatli va jismoniy rivojlantirishga qaratilgan tadbirlar tizimini amalga oshirish;

tabiat qo'ynida mehnat (sog'lomlashtirish uchun bog' (tajriba maydonchasi, ekologik yo'lakcha) mehnatni tashkil etish uchun turli xil ta'limiy-tarbiyaviy va harakatli o'yinlarni tashkil etish, amaliy kuzatish, tajriba-eksperimentlar, samarali ilmiy-tadqiqot faoliyati uchun tabiiy muhit (*sharoit*)dan foydalanish;

sog'lomlashtirish ta'limiga odatlantirish;

o'qishni o'zlashtirish va ovqatlantirish;

o'qish va o'qilgan bilimda olingan bilim va ko'nikmalarini mustahkamlashga qaratilgan ta'limiy-tarbiya jarayonini tashkil etish;

ijtimoiy kommunikativ ko'nikmalarni rivojlantirish;

o'z-o'zini boshqarish xatti-harakat ko'nikmalarini takomillashtirish;

bolalar o'rtasida sog'lom turmush tarzi, sog'lomlashtirish tadbirlarini uyda davom ettirishlari bo'yicha pedagogik va sanitariya-targ'ibot ishlarini amalga oshirish, yozgi davrda ularni bolalar bilan birgalikdagi tadbirlarga jalb qilish.

Yozgi sog'lomlashtirish davrida pedagoglarning asosiy vazifasi bolaning dam olishi va jismoniy rivojlanishiga bo'lgan ehtiyojini ta'minlashdir.

veb-saytimiz: Zokirjon.com

Zokirjon.com veb-sayti orqali o'zingiz uchun kerakli ma'lumotlarni yuklab oling.

Zokirjon Admin bilan

+99891-328-88-38 nomerga telegramdan yozishingiz yoki telegramdan jek567 izlab telegramdan yozishingiz so'raladi.

Telegramda murojaatingizga o'z vaqtida javob beriladi.

25 listdan iborat kichik guruhlarga yoz davri metodik tavsiyani to'liq holda olish uchun telegramdan yozing.




Narxi: 15 ming so'm

Telegram kanalimiz:

@maktabgacha_tt

To'lov uchun: HUMO 9860230104973329

Plastik egasi Nabiyev Zokirjon



DIQQAT!!!

Bu hujjatni hech kimga tarqatmaslik sharti bilan olishingiz mumkin.

Sizga bu OMONAT qilib beriladi.

To'liq holda olganingizdan so'ng:

Faqat o'zingiz uchun foydalaning.

Hech kimga bermang hattoki eng yaqin insoningizga ham.

Internet veb-saytlarga joylamang.

Telegram orqali kanal va gruppalarga tarqatmang.

OMONATGA HIYONAT QILMANG.